

NAVOIY VILOYATINING QISHLOQ TUMAN TOPONIMLARI

Navoiy davlat pedagogika instituti

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası

O`qit. S.Q. Negmatov, magistr Sh.S. Islomova, talaba S. Raxmonov

Annotatsiya: Ushbu maqola Navoiy viloyati qishloq tumanlari joy nomlarini kelib chiqish tarixi va yillar davomida toponimlarda sodir bo`lgan o`zgarishlar haqidagi ma`lumotni o`z ichiga olgan.

Kalit so`zlar: Joy nomlari, Navoiy viloyati, Xatirchi, Qiziltepa, Karmana, Navbahor, Nurota, Konimex, Uchquduq, Tomdi, tabiiy geografik joy nomlari.

TOPONYMS OF RURAL DISTRICT OF NAVOI REGION

Navoi State Pedagogical Institute

Department of Geography and Fundamentals of Economics

Teaching. S.Q. Negmatov, Master Sh.S. Islamova, student S. Rakhmonov

Annotation: this article contains information on the history of the origin of the place names of rural districts of Navoi region and the changes that have occurred in toponyms over the years.

Keywords: Place names, Navoi region, Khatirchi, Kiziltepa, Karmana, Navahor, Nurota, Konimekh, Uchkuduk, Tomdi, natural geographic place names

Navoiy viloyati - yosh va navqiron viloyat bo`lsada, uning insoniyat tamadduniga katta hissa qo`shgan qadimiy va boy tarixi bor¹. Shu o`rinda aytish lozimki, qadimiy va boy tarixga ega bo`lish bilan birgalikda biz yashab kelgan, ajdodlarimiz yashab kelgan mana shu zamindagi joy nomlarining ham o`ziga yarasha kelib chiqish tarixi, sabab va oqibatlari bor.

Hech qanday mazmunga ega bo`lmagan, tasodifiy nom bo`lmaydi, shuning uchun ham turli soha olimlari ya`ni tarixchilar, lingvistlar va geograflar toponimlarni va ularning kelib chiqishini o`rganishga katta umid bog`lagan. O`zi istiqomat qilayotgan joyning nomi, uning kelib chiqishi, qanday ma`noga ega ekanligi barchaga qiziq bo`lsa kerak, albatta.

Joy nomlarining kelib chiqishi va qanday ma`nolarni anglatishi, avvalo, o`sha joyning geografik o`rni, tabiiy sharoiti, o`simlik va hayvonot olami, tarixiy o`tmishi, bu joyda qanday xalqlar, mashhur insonlar yashab o`tgani yoki turli xil afsonalarga bog`liq bo`lishi mumkin².

¹ "Navoiy o`tmishi qadim kelajagi nurli diyor" jurnali. "Ma`naviyat", T.: 2012. – 3-bet.

² Maktabda geografiya (ma`naviy-ma`rifiy ta`limiy jurnal), T.: 2010. 10/22-son.

Navoiy viloyati mamlakatimizda hududiy jihatdan eng katta viloyat bo`lib, hududi jihatidan Qoraqalpog`istondan keyingi ikkinchi o`rinni egallaydi. Navoiy viloyati tarkibida 8 ta qishloq tumani mavjud bo`lib, ular: Xatirchi, Qiziltepa, Karmana, Navbahor, Nurota, Konimex, Uchquduq, Tomdi tumanlari hisoblanadi.

Ushbu maqolada biz aynan mana shu tumanlar nomlarining kelib chiqishi va qanday ma`nolar kasb etishi haqida so`z yuritamiz.

Dastlab, Xatirchi tumani haqida. Xatirchi tumani viloyatning yirik tumanlaridan biri bo`lib, u Zarafshon daryosining o`ng qirg`og`ida joylashgan. Tuman unumdor yerlari, serhosil bog`lari, so`lim maskanlari bilan hamda Langar, Sangijumon, Oqsoqolota kabi sirli toshli joylari bilan alohida ajralib turadi va kishilar e`tiborini tortadi. “Xatirchi” atamasining adabiy-badiiy manbalarda ilk bor uchrashi bundan qariyb 300 yil muqaddam yashagan Boborahim Mashrabning 1697-1709-yillar orasida Xatirchida bo`lishi va bu yerda avliyo Gadoy Selkin ota maqbarasini ziyorat qilishi tilga olingan. “...Sen aytmasang men aytay Miyonqol! Qovunning shirini, uzumning sarasi shu vodiya yetiladur. Qoradaryo bilan Oqdaryo oralig`idagi bu vodiyning tuprog`i uzoqdagi tog`lardan uchib kelgan gardlardan hosil bo`lgan. Ana shu oraliq nihoyatda obod, sersuv, ekinzor bo`lib, bu yerda Xatirchi, Payshanba, Qal`ayi Dabusiya kabi ko`pgina qishloq hamda shaharlar bo`lgan”. Navoiy viloyati Xatirchi tumanida yashab o`tgan, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida faol ishtirok etgan shaxslardan biri, marhum Mirzaazim Abduqodirovning shaxsiy arxividan chiqqan bir hujjatda Xatirchining nomlanishi 1677-milodiy yildan boshlanadi. Abdurazzoq xo`ja ibn Abduvahhob xo`ja Badr ota tomonidan savdo-sotiq va bozor munosabatlari qonun qoidalariga bag`ishlab hijriy 1277-1278-yillar (milodiy 1861-1862-yy) da yozilgan “Kitobi bay`ya” asarida o`zlari tug`ilgan yerni “joy mavludash qishlog`i Qoracha az sho`bayi Xatirchiga bexatar” deb tilga olgan. Bundan tashqari keksa kishilarning og`zaki hikoyalariga, ba`zi bir tarixiy voqealarga asoslanib shuni dalil qilib aytish mumkinki, bu nom “xatarchi”, “xatarli” so`zining davrlar o`tishi bilan talaffuz tarzining o`zgarishi tufayli hozirgi holatga yetib kelgan ko`rinishidir³.

Birinchi, bir vaqtlar tuman markazining janubiy tomonlari botqoqli, qamishzor, to`qayzor, chakalakzorlar bo`lib, unda yovvoyi hayvonlardan to`ng`iz, bo`ri, tulki, to`qay mushugi va hatto Turkiston yo`lbarasi ham uchrashi mumkin bo`lgan. Ikkinchi esa ba`zi

³ S. Qorayev “O`zbekiston viloyatlari toponimlari”. –T.: 2005. -85-bet.

yillari bahor erta va issiq kelib qor va muzlarning ko`plab erishi oqibatida Oqdaryo va Qoradaryo suv toshqinlari bo`lib, ikki daryo qo`shilish joyi o`zanini o`zgartirib, ko`p joylarga suv bosish xavf-xatari borligi tahlikasi bo`lgan.

XIX asr o`rtalarida Buxoroga kelgan rus sayyohi N.Xanikov bu qishloq nomini “Xatircha” deb yozgan, xalq asli “xatirchi”, “xachir sotuvchi” deb izohlaydi. Mahmud Qoshg`ariyning “Devoni lug`atit-turk” asarida xachir so`zi “qatir”, “xatir” shaklida uchraydi. Baxmal tumanida Xatirchi (Katirchining beli) degan dovon bor.

Qiziltepa tumani o`tmishda ma`lum va mashhur, ulkan So`g`d tarixiy-madaniy mintaqasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan. Bu hududdan Katta O`zbekiston trakti o`tgan. Qiziltepa - Navoiy yo`nalishida, shuningdek, G`ijduvon, Shofirkon. Vobkent shaharlariga avtobus va marshruti taksilar qatnovi yo`lga qo`yilgan. Me`moriy yodgorliklardan Toshmasjid majmuasi (XVI-asr), Xoja Boyazid Bistomiy maqbarasi va boshqalar bor. Tarixchi olim Mirzo Abdulazim Somiy Bo`stoniy (XIX-asr), ulamo Xoja Hasan Andoqiylar (XI -XII-asrlar) shu tuman hududida tug`ilgan.

Karmana tumani Navoiy viloyatining eng kenja va shu bilan birga qadimiy tumanidir. Bu tuman 2003 yilda qayta tashkil etilgan. Karmana arab geograflaridan ibn Havqal, Istaxriy, Muqaddasiy asarlarida uchraydi. Karmanaya, Karmina shakllarida ham qayd qilingan. Yozma manbalarda Xarimankat (“katta manzilli shahar”) shaklida ham keladi. Rivoyatlarda keltirilishicha, arablar Buxoroga kelganda Karmana atroflaridagi yerning unumdorligi, suvining sifatiga ko`ra “Armanistonga o`xshar ekan deganlari uchun, Ki-Armaniya” deb nom olgan emish. A. Muhammadjonovning fikricha Karmana Xarmana shaklida talaffuz etilgan va “Katta saroy” ma`nosini anglatgan⁴.

Navbahor tumani Navoiy viloyatining yuksalib borayotgan va yuksak dovon sari intilayotgan istiqboli porloq tumanidir. Navbahor tumani Zarafshon daryosining shimoli-sharqiy qirg`og`i bo`ylab joylashgan.. Shu o`rinda aytish kerakki, Navbahor tumani toki 1980 yilgacha Karmana tumani tarkibiga kirgan va “Leningrad” deb atalgan. Keyinchalik 80-yildan alohida tuman sifatida ajratilganidan so`ng unga tumanda yashovchi faxriylarning takliflari inobatga olinib “Navbahor” deb nom berildi. “Nav” so`zi “yangi” degan ma`noni bildiradi.

⁴ S. Qorayev “O`zbekiston viloyatlari toponimlari”. –T.: 2005. -88-bet.

Nurota shahridan Buyuk ipak yo`lining bir tarmog`i o`tgan. Bu yerda antik davrga oid Nur qal`asi qoldiqlari joylashgan, qal`ada “Nur chashmasi” nomli buloq bor.

E`tibor berilsa bu hududdagi juda ko`p nomlar “nur” so`zi bilan bog`liq. Hatto bu yerdagi tog` tizmasi ham shu nom bilan atalgan va atalib kelinmoqda. Rus adabiyotida Nurota nomi mo`g`ulcha nuru - “tizma tog`” va turkiycha “tog`” so`zlaridan olingan degan gaplar uchrardi. Aslida Nurota mo`g`ullar kelmasdan ancha oldiroq Nur nomi bilan ma`lum bo`lgan.

Tarixchi Narshaxiy Nur qishlog`i Buxoro shahri vujudga kelmasdan oldin ham mavjudligi to`g`risida yozgan: “Nur katta joy. Unda masjidi jom`e bor; u ko`pgina rabotlarga ega. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun bu yerga boradilar. Bu Nurni boshqa viloyatlarda Nuri Buxoro deb ataydilar”. Nur degan boshqa joylar ham bor masalan, Qoradaryo bilan Oqdaryo oralig`ida Nuri Mioikol degan qishloq tilga olingan⁵.

Mahalliy rivoyatlarda shaharning paydo bo`lishi Iskandar Maqduniy davriga borib taqaladi. Keyinchalik shahar bu yerda yashab o`tgan mashhur Shayx Abulhasan Nuriy sharafiga “Nurota” deb atala boshlangan.

Uchquduq tumani 1982 yilda tashkil etilgan. Tuman va shaharga “Uchquduq” nomining berilishi shahar markazi joylashgan hududda XX asrning boshida mavjud bo`lgan uchta quduqdan kelib chiqqan. 1958 yilgacha bu uchta quduq hududida yoki atrofida mol chorvachiligi bilan shug`ullanadi tirikcilik qilgan va keyin jamoa xo`jaliklari chorva mollari boqib, mehnat qilgan chorvadorlar yashagan.

Konimex tumani xalq orasida Eron podshohining o`g`li Shopur Turan shu o`lkada yashagan Mehribonu go`zalga oshiq bo`ladi va sevgilisiga uylanadi. Sevgilisi Zarafshon daryodan suv yo`li kanal qazdirib, unga Konimehr deb nom beradi. Asrlar davmida Konimehr so`zi o`zgarishga uchrab Konimex deb atalib ketgan degan rivoyat bor. Boshqa bir rivoyatda esa Mex ota koni degan ma`noni beradi: “Kon” so`zi fors tilida “daryo tarmog`i yoki anhor va suv yo`li oriq” degan ma`noga ega. Shu sabab Konimex deb nom olgan deyiladi.

Bu ikki rivoyat bir-biriga yaqin ma`no kasb etmoqda. Ikkalasida ham anhor ma`nosi kelib chiqmoda. Uchinchi bir rivoyatda esa ilk o`rta asrlarda Buxoroda otashparastlarning ibodatxonasi bo`lgan va u “Masjidi Mox” deb yurtilgan. Ibodatxona qarshisida butlar yasab

⁵ S. Qorayev “Топонимика”. –Т.: 2006. -152-bet.

sotiladigan bozor ham boʻlgan. Uni “Bozori Moxruz” ya’ni buning ma’nosi “Zardo`sh tiylarning hayit bozori” deb yuritilgan. Bu bozor yiliga bir marta, Navro`z kuni boʻlgan. Shu kuni bozorda yog`och va sopoldan yasalgan butlar sotilgan. Favqulotda haykalchalari sinib qolgan yoki eskirgan kishilar faqatgina shu kuni yangi but sotib olish imkoni boʻlgan. Shu sababli musulmonchilik qaror topgan o`rta asrlarda yozilgan salnomalarda Movarounnahrning qadimiy aholisiga “Mug” yoki “Mugon” ya’ni otashparast, budparast nomi bilan tilga olinadi. Keltirilgan tahlilga asoslanadigan bo`lsak, “Konimex” atamasi “Mug`daryo” ya’ni “Zardo`sh tiylar anhoiri” degan ma’nolarni anglatadi.

Shu o`rinda ta’kidlab o`tish joizki, “Konimex” atamasi tilshnoslik jihatdan tahlil etilsa, “Kon” va “Mex” kabi ikki so`zdan kelib chiqqan. Atamaning birinchi bo`g`inidagi “Kon” so`zi “arna, daryo tarmog`i yoki anhor” kabi ma’noni anglatadi. Ikkinchi bo`g`in “Mex” atamasi “mox” yoki “mug” shaklida bo`lib, u “otashparast, o`tparast, butparast” ma’nosini anglatgan .

“Tabiiy geografik joy nomlarining hiyla turg`unligi, davrlar o`tishi bilan ham o`zini saqlab qolishi toponimistlarga ma’lum. Faqat ayrim fonetik o`zgarishlar yuz berishi yoki boshqa tilga aynan tarjima qilinib, ishlatilaverishi mumkin. Bu xil nomlar qachon paydo bo`lganligini aniq aytish qiyin. aksincha siyosiy ma’muriy nomlar chaqqonroq o`zgarib turadilar. Ularning davrini- qachon qo`yilganligini aniqlash mumkin” – deb aytib o`tadi Hamidulla Hasanov o`zining “Tanlangan asarlar” ida.

O`zbekiston Respublikasining “Geografik ob`yektlarning nomlari to`g`risida”gi 2011 yildagi qonunining 7-moddasida tumanlar, shaharlar, viloyatlarga nom berish va ularning nomlarini o`zgartirishga bag`ishlanadi. Unga ko`ra tumanlar, shaharlar, viloyatlarga nom berish va ularning nomlarini o`zgartirish viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimlari iltimosnomalari asosida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi kiritgan takliflariga ko`ra O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan amalga oshiriladi.

Respublikamizda “Geografik ob`yektlar nomlari to`g`risida”gi Qonunning qabul qilinishi geografik ob`yektlar nomlarini qo`llanilishini qonuniy jihatdan mustahkamladi. Mamlakatimizdagi joy nomlarini o`zbek xalqi tarixiy va madaniy merosining tarkibiy qismi sifatida to`g`ri qo`llash hamda saqlash imkonini beradi. Toponimika sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. “Navoiy o`tmishi qadim kelajagi nurli diyor” jurnali. “Ma’naviyat”, T.: 2012. – 3-bet.

2. Maktabda geografiya (ma'naviy-ma'rifiy ta'limiy jurnal), T.: 2010. 10/22-son.
3. S. Qorayev "O'zbekiston viloyatlari toponimlari". –T.: 2005. -85-bet.
4. S. Qorayev "Toponimika". –T.: 2006. -152-bet.